

Mening ismim Sobir. Yoshim 38da. Men tumanimiz oilaviy poliklinikasida ishlayman. Bir kuni bir begona shaxs o‘zini bemorim Valijonning uzoq qarindoshi sifatida tanishtirib, Valijonning tashhisi bo‘yicha maslahatlar olganidan so‘ng, mendan yordam ko‘rsatishimni so‘radi:

- “Aka, sizga bitta iltimos bor. Agar yordam qila olsangiz sizdan juda minnatdor bo‘lardim”, dedi.

Men ham “savob” bo‘lsin, yaxshiligim tegsin deb unga quloq soldim.

- “Akajon, qo‘limda hozir naqd pulim bor. Agar sizga Valijonning ayolini karta raqamini aytsam, bank kartangizdan o‘sha kartaga 100 ming so‘m ko‘chira olasizmi. Valijon bu yerda davolanayotgani uchun oilasi pulsiz qoldi. Xizmat haqqini beraman. Ularga pul juda zarur edi, pullarni berib yuborishni esa menda hozir imkoni yo‘q”, deb vaziyatini tushuntirdi.

Ayni vaqtda bank kartamda ham yetarli pul bor edi. U aytganiday pulni ko‘chirib, o‘rniga uni qo‘lidan naqd pulni oldim. Xizmat haqqiga kelsak hech narsa olmadim, o‘zi ketgan bo‘lsa komissiya uchun mendan 500 so‘m ketdi.

Boshqa kuni Valijonning uzoq qarindoshi oldimga kelib, yana yordam so‘radi:

- “Sobir aka, o‘tgan safar rosa yaxshiligingiz tegdi. Bu safar ham yordam qilsangiz. Kecha kechgı payt pasportim va telefonimni o‘g‘irlatib qo‘ydim. Hujjatlarimni tiklashimga ma'lum vaqt ketar ekan, uyga qaytib ketishim uchun esa menga pul zarur. Agar pasportingiz oldingizda bo‘lsa, bankdan men uchun o‘z nomingizga bank kartasini ochib bera olasizmi? Keyin mening qarindoshlarim o‘sha bank kartasiga pul tashlab berishardi. Havotir olmang, barcha komission to‘lovlarini to‘laymiz. Sizni rozi qilaman. Sobir aka, yordam bering iltimos”, deb qoldi.

Men o‘ylab qoldim. Bitta bank kartasini ochib bersam nima qilipti? Ustiga-ustak pul ham ishlab olarkanman. Valijonning qarindoshi qilgan taklifga rozi bo‘lib, bank mobil ilovasi orqali yangi karta uchun ariza yubordim. Ertasi kuni, bank xodimlari kartamni keltirganidan so‘ng unga yangi bank kartam pinkodini aytib, berib yubordim. “Xizmat”im uchun esa 60 ming so‘m ishlab oldim.

### **Savollar:**

1. Sobir ushbu jarayonda qanday xatolarga yo‘l qo‘ydi?
2. Uning bunday qarori qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?
3. Sobir qonun hujjatlariga asosan bank kartasi bo‘yicha qanday majburiyatlarga ega? Uning majburiyatlari yana qanday hujjatda aks etadi? Javobingizni asoslang.